

ISSN 2010-720X

ILIM HÁM JÁMIYET



FAN VA JAMIYAT

2023 (№3)

5. Pirniyazova A., Pirniyazov Q., Bekniyazov K. "Baslawish klaslarda ana tilin oqıtıw metodikası". -Toshkent: «Sano-Standart», 2018, 97- b.

6. Berdimuratov E., Pirniyazov J., Allanazarov Q., Uspanova J. Oqıw kitabı. 4-klass ushin sabaqlıq. - Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2017, 81-b.

7. Sagdullaev A.S., Kosteckiy V.A. "Áyyemgi dýnya tariyxi" 6-klass ushin sabaqlıq. -Toshkent: «Yangi ýol», 2017, 102- b.

REZYUME. Mazkur maqolada samarali dars o'tish jarayoni, fanlarga integrativ yondashuv tushunchasi va uning o'quvchi faoliyatini oshirishda tutgan o'mni haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье представлена информация об эффективном учебном процессе, концепции интегративного подхода к науке и его роли в повышении успеваемости учащихся.

SUMMARY. This article presents information about the effective teaching process, the concept of an integrative approach to science and its role in improving student performance.

BO'LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING NAZARIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

B.B.Baymetov – professor

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: tasviriy san'at, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, metodika, kasbiy malaka, badiiy ijod.

Ключевые слова: изобразительное искусство, рисунок, живопись, композиция, методология, профессиональная квалификация, художественное творчество.

Key words: fine arts, drawing, painting, composition, methodology, professional qualification, artistic creativity.

Xalqaro tajribalarga ko'ra, tez o'zgarayotgan jahonda faoliyat olib boruvchi professionalni kasb egasi sifatida tayyorlash – bu oliy ta'limga muassasalarini oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, malaka va ko'nigmalar tahlili asosida bo'lajak mutaxassislarda o'z kasbini rivojlantirish, nazariy ma'lumotlarga ega bo'lismi kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish dolzarb vazifadir. Ta'limga modernizatsiyalash sharoitida nazariya va amaliyotning majmuaviy birligi, ta'limga muassasalarini va ta'limga oluvchilar imkoniyatlarini integrallovchi metodikalarni qo'llash asosida bo'lajak pedagogini kasbiy tayyorlash, mustaqil ta'limga nazariy ma'lumotlar asosida boyitish va kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan o'quv dasturlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda respublikamizning oliy o'quv dargohlarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash, yoshlarni badiiy jihatdan barkamol tarzda tarbiyalash uchun yangilangan davlat ta'limga standartlari, yangi o'quv rejalarini, dasturlari tuzildi, o'quv qo'llanma, darslik va uslubiy tavsiyanomalarning yangi avlodni yaratilmoqda. So'nggi yillarda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'limga yo'naliishlari bilan bir qatorda "Rangtasvir" turlari bo'yicha, "Kasbiy ta'limga amaliy san'at" turlari bo'yicha yangi bakalavriat ta'limga yo'naliishlari faoliyat olib bormoqda. Oliy o'quv dargohlarida yoshlarga milliy san'at namunalarini o'qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli, metodlari ishlab chiqilmoqda, hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab voyaga yetkazish borasida ko'plab ilmiy tadqiqolar olib borilmoqda.

Amalga oshirilayotgan barcha ishlarni e'tirof etgan holda shularni ta'kidlash joizki, hozirgi kunda pedagogika universitetlari va institutlari fakultetlarda mutaxassislik fanlar, jumladan tasviriy san'atning asosi bo'lgan o'quv predmetlari: qalamtasvir va rangtasvirdan amaliy mashg'ulotlarini o'qitishda nazariy va metodik asoslarni ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo'li, shakli, mazmuni hamda metodlarini takomillashtirish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bizningcha, amaliy mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy tayyorlashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

– bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda umumta'limga maktablari va san'atga ixtisoslashgan tasviriy san'at maktablarining amaldagi davlat standartlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish;

– oliy pedagogik ta'limga muassasalarida kasbiy ta'limga fanlari: qalamtasvir va rangtasvirdan amaliy mashg'ulotlarini o'qitishning hozirgi holatini aniqlash va uning keyingi yillarda mo'ljallangan istiqbol yo'llarini ishlab chiqish;

– tasviriy san'at ixtisosligi bo'yicha oliy o'quv yurtlarida mutaxassis rassom-pedagoglarni tayyorlovchi muassasalar

ish faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etish;

– qalamtasvir va rangtasvirdan amaliy mashg'ulotlarini o'qitishda ularning nazariy asoslarni ishlab chiqish va bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish;

– umumta'limga maktablari va san'atga ixtisoslashgan tasviriy san'at maktablarini uchun yuqori bilimga ega, qalamtasvir va rangtasvir fanlarini nazariy va amaliy jihatdan egallagan, zamonyaviy axborot texnologiyalari bilan qurollangan pedagog kadrlarni tayyorlash;

– tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda mahalliy manbalardan foydalanshini keng yo'lga qo'yish orqali yoshlarni yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarni ta'minlash va yuksak didli, Vatanga sadoqat, milliy hamda jahon xalqlari tasviriy san'atini mukammal biladigan, o'tmish madaniyatimizni sevib qadrlay oladigan kishilar bo'lib yetishishlarni ta'minlash.

Ma'lumki, yoshlarni badiiy jihatdan barkamol, Vatanga va milliy san'atga sadoqat ruhidagi tarbiyalab voyaga yetkazishda oliy pedagogik ta'limga olib boriladigan barcha fanlar, shu jumladan tasviriy san'atdan kasbiy fanlarining o'rni behisob. Shulardan asosiysi qalamtasvir va rangtasvir fanlari bo'lib, uning bo'lajak kadrlarni kasbiy tayyorlashda o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurti fakultetlarida olib borilayotgan akademik rangtasvir asoslarini va kompozitsiya va akademik qalamtasvir maxsus fanlarning chuqr va asosli bo'lismi taqazo etib, pedagog va olim va rassomlar zimmasiga yuksak vazifalarni belgilaydi.

Qalamtasvir va rangtasvir fanlari bakalavriat ta'limga yo'naliishida o'qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular o'rtasida bevosita bog'liqlikni ta'minlaydi. Qalamtasvir va rangtasvir borasida yetarli bilim va malakalarini egallamay turib, talaba kompozitsiya, rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqa mutaxassislik fanlarni yuqori darajada o'zlashtira olmaydi. Qalamatasvir va rangtasvirning asosiy vazifasi talabalarda tasvirlash mahorat qirralarini o'rganish natijasida yuzaga kelgan bilim va malakalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. U talabadan tasvirlash qonun-qoidalarini bilishni va ulardan o'quv va ijodiy faoliyatda to'g'ri foydalana olishni ko'zda tutadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini amaliy mashg'ulotlar jarayonida kasbiy tayyorlash, ularning kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari bilan hamda, amaliy va nazariy mashg'ulotlarning talabalarda borliqni haqqoniy obrzlarda tasvirlashni mukammal o'zlashtirish masalalari bilan dunyoning yetakchi davlatlari hamda MDH mamlakatlari olimlari shug'ullanganlar, jumladan rossiyalik olimlar V.I.Andreyev, V.V.Anisimov, V.G.Katashev, V.S.Kuzin, V.G.Maksimov, N.N.Rostovsev, V.A.Slastenin; qozogistonlik olimlar Almuxambetov B.A., Akparova J.M., Arsaliyev Sh.M., Alimbekov A., K.Ye.Yeralin Kozubakov

M.J., Amirgazin K.Alar, o'zbekistonlik olimlardan S.Abdullayev, B.Azimov, B.Baymetov, N.Tolipov va boshqalar shug'ullaniganlar.

Qog'oz yuzasida jismlarning asl shaklini yuksak mahorat, hamda aslidagidek tasvirlash uchun, talaba tasviriy san'at borasidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni mukammal egallashi va uni amaliyotda qo'llay olishi zarur. Shuningdek, u narsani asliga qarab, xotira va tasavvurga asoslanib rasm chizishni mukammal o'rganib olishi zarur. Albatta, bunday ijodiy topshirqlarni bajarish uchun inson ma'lum qobiliyatlarga ega bo'lishi va o'z ustida uzlusiz va betinim ishlay olishi muhimdir. Amaliyotdan ma'lumki, tasvirlashga o'rgatish bu bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi vazifalarni hal etish bilan bog'liq. Jumladan: narsani o'ziga qarab konstruktiv tuzilishi, o'zaro nisbatlari, rang va tus munosabatlarini anglash; shakllarni kuzatish va bir-biridan farqlarini ajratish; jismlarning rangi, materiallik xususiyati bo'yicha farqlash; shakllarning fazoda joylashishi, fazo va chiziqli perspektiv ko'rinishi va boshqalar.

Tarixdan ma'lumki, Uyg'onish davri rassom va ijodkorlari tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga ta'limni yangicha tarzda olib borishni, shakllarni tasvirlashda qalamtasvirda mukammal malakalarga ega bo'lish kerakligi haqida ko'plab asarlar qoldirganlar. Bunda o'sha davrning buyuk tasviriy san'at ustalari: "Chennini Chennino, Leon Battista Alberti, Leonardo da Vinci, Albrekt Durerlar faol ish olib bordilar va antik davr Qadimgi Yunon rassomlarining narsani o'ziga qarab tasvirlashda nisbatlar qonunlari, perspektiva, anatomiya kabi fanlar rassomlarning doimiy diqqat markazida bo'lishi kerakligini uqtirganlar. Xususan, Leon Batista Alberti, tasvirlashda nazariy asoslar yetakchi o'rinda bo'lishi kerakligini, shakllarni qurishda chiziqli konstruktiv tasvirlash tasviriy san'atning asoslaridan biri ekanligini ta'kidlagan. U tasviriy san'at o'qitish metodikasi, xususan qalamtasvir ishlashda tabiat qonunlaridan foydalish kerakligini tasviriy san'atning negizida ilm-fan bo'lsagina, bajarilayotgan tasvir hayotiy bo'lishini ta'kidlagan" [9].

Buning uchun talaba eng avvalo, naturaga to'g'ri ko'z bilan, tabiatdagi voqeja va hodisalarga haqqoniyo ko'z bilan qarashga o'rganishi lozim. Bu o'z navbatida ham eng mushkul, ham eng zaruriy murakkab vazifalardan biri bo'lib, uning uchun talabada nazariy bilimlarning chuqur

bo'lishini va ularni amaliyotga qo'llay olishini talab etadi. Qalamtasvir va rangtasvir mashg'ulotlari boshqa fanlar kabi nazariy bilimlarga asoslangan bo'lib, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisidan biron shaklni tasvirlashda naturaga e'tiborli bo'lishga, fikrlashga va jismlarning shaklini aniq tahlil qilishga o'rgatishi lozim.

Biz olib borgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadi, aksariyat hollarda oly ta'limda olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarda talabalar tomonidan oddiy vaziyatlarda qo'pol xatolarni yo'nga qo'yadilar. Masalan, shaklni konstruktiv qurilishini anglamagan holda uni hajmdor ko'rsata olmaydilar, yoki, shaklni tuslashda yorug', soya, yarim soya, refleks, tushuvchi soya, shaxsiy soyalarni anglay olmaydilar. Natijada, shaklning hajmdorligi asosli chiqmaydi. Tasvir tomoshabinda estetik zavq bag'ishlamaydi va tushunarsiz holatda namoyon bo'ladi. Kuzatishlar davomida biz amaliy mashg'ulotlarda talabalarning shakllarni tasvirlashda talabalarning nazariy ma'lumotlari borasida qanday bilimlarga ega ekanliklarini o'rgandik. Quyidagi jadvalda talabalar tomonidan shakllarni tasvilashda yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklarni keltiramiz.

Realistik qalamtasvir va rangtasvirda amaliy mashqlar bajarish talabani metodik jihatdan mahoratni shakllantirishda, tasvirlashda uslubiy izchillikda, ketma-ketlikni qo'llagan holda ishlashni bilishga va turli tasviriy vositalarda to'g'ri foydalana olishga o'rgatadi. Amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak mutaxassis turli xil qalamlar, yumshoq materiallar bilan ishlashni o'rganishi, kerakli tusni hosil qilish uchun qalamlar bilan ishlashni malakalarini shakllantirishi, rang va tus munosabatlarini tushunishi va amaliyotda undan samarali foydalana olishi muhim bo'lib hisoblanadi.

Tabiatdagi barcha shakllar, shuningdek, inson tanasi ham o'zida turli geometrik qism birikmalaridan tarkib topgan murakkab plastik shaklni aks ettiradi. Shuning uchun tasviriy san'at bo'yicha dastlabki mashg'ulotlar oddiy geometrik shakllarni turli holat va rakurslarda chizishga bag'ishlanadi. Kadrlar tayyorlashda tasviriy mahoratning roliga alohida urg'u bergen holda, rassomchilik sohasining mashhur namoyandalari aytib o'tgan fikrlarni har bir yosh mutaxassis yodda tutishi va ish jarayonida ularni o'ziga shior qilib olishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Baymetov B.B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. -T.: "Moliya iqtisod" nashriyoti. 2007.
2. Baymetov B.B., Tolipov M.S. Plastik anatomiya. -T.: "Ilm ziyo", 2016.
3. Boymetov B.B., Qalamtasvir. Darslik. -T.: "Musiqa", 2006.
4. Toshmurodov M. "ChIZMATASVIR" qo'llanma. -Toshkent: «Noshir», 2012.
5. Baimetov B.B., Nabiiev V.A. Technologies for Improving the Composition of Students in the System of Higher Pedagogical Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: April 17, 2021. –P. 64-70.
6. In fine arts. "science and modern society: current issues, achievements and innovations" conference date. 15-03-2021. –P. 31-38.
7. Baimetov B.B., Tilapova O.A. 2021. Life and work of the great master of miniature art of the east K.Behzod. Current research. Journal of Pedagogics (2767-3278), 2(05), Current research journal of Pedagogics 2(5): 01-03, May 2021. DOI: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-05-01>.ISSN 2767-3278.©2021 Master Journals. Accepted 15th May, 2021 & Published 20th May, 2021. -P. 4-12. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-05-02>.
8. Baymetov B.B., Misoatova L. Development of creativity and imagination of schoolchildren in fine arts classes current research journal of Philological sciences 2(5): -P. 55-61, May 2021 DOI:<https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-05-14>ISSN2767-3758©2021Master JournalsAccepted25th May, 2021 & Published 31th May, 2021.
9. Жуликов А.В. Теоретические и методические основы преподавания изобразительного искусства в общеобразовательных учреждениях Учебное пособие. -Каменск-Шахтинский: 2016. –С. 9.

REZYUME. Maqola oly ta'limda tasviriy san'at sohasida yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy fanlardan nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish, tasvirlash texnikasi va mahoratlarini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, unda tasviriy san'at sohasida yirik olimlar, qadimgi usta rassomlarning tasviriy san'atning nazariy masalalariga bag'ishlangan fikrlari bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ. Статья направлена на организацию теоретических занятий в подготовке высококвалифицированных учителей в области изобразительного искусства. В ней также описываются высказывания великих учёных в области изобразительных искусств, древних художников, посвященных теоретическим вопросам изобразительного искусства.

SUMMARY. The article focuses on organizing theoretical classes in the preparation of highly qualified teachers in the field of fine arts. It also describes the statements of great scientists in the field of fine arts, ancient artists, devoted to the theoretical issues of fine arts.

M A Z M U N I
PEDAGOGIKA ILIMLERI

Pedagogika teoriyası hám tariyxi	
Abdullaeva R.A. Mekteplerde tálim sistemasın rawajlandırıw programmasınıń analizi	3
Абылова Г.Ж. Особенности специализированной подготовки студентов на основе дидактической модели в проекции цифрового образования	5
Алланазаров Р.М. Интеграция элементов высшей математики в среднюю общеобразовательную школу: методы и подходы к обучению	7
Bazarbayeva A.Q. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi	8
Berdimbetova A. To'qimachilik sanoatida naqshning tutgan o'rni	10
Boynazarova S.R. Biologiya fani o'qituvchisi kasbiy kompetensiyalarining o'ziga xos jihatlari va uni monitoring qilish texnologiyasi	12
Джанабаева А., Уразова М.Б. Методическая компетентность педагога: сущность и диагностика	14
Еримбетов Б.Қ. Курашда спорт травматизми таҳлили ва уни камайтиришга оид тадбирлар ишлаб чиқиш	16
Федорова С.В. Применение степ аэробики для повышения уровня физической подготовки фигуристов	18
Жумабаев Т.Ж. Футболчиларнинг психологик хусусиятларини ўрганишнинг баъзи масалалари	20
Qazaxbaev S. Pedagogikaliq texnologiya hám innovaciyanıń rawajlaniw tariyxi	22
Kaipbergenova F.T. New approaches to teaching a foreign language	24
Kosbergenov B.M. Professor Óserbay Álewovtń miynetlerinde tálim-tárbiya máseleleri	26
Mamutov Q.T. Malakali kurashchilarni tayyorlashda jismoniy tayyorgarlikning xususiyati	28
Primbetov A.A. Erkin kurashchi xotin-qizlarning musobaqa oldi texnik tayyorgarlikni rivojlantiruvchi mashqlar majmuasini rivojlantirish	29
Ramazanov M.B. Júziw sheberligin hám nátiyeliligin asırıwda trenirovka processin rejelestiriwdiń áhmiyeti	31
Рўзиева Д.С. Физик жараёнларни моделлаштириш асосида политехник тафаккурни ривожлантириш имкониятлари	33
Saxanova L.J., Allamuratova N.K., Raxmetova L.O. The role of artificial intelligence in personalized learning and its impact on student achievement	35
Сейтмуратов Қ. Исмайылбек Гаспиралиниң тәлим-тәрбиялық ой-пикирлери	38
Tajimuratov A.J., Sharipova N.K. Rotatsizm hám oni saplastırıwda qollanılatuǵın usıllar	40
Tleumuratova A.B. Talabalarni madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar muhitining o'ziga xosligi	41
Тұхтабоев Н.Т. Баландликка сакровчи қызларнинг жисмоний тайёргарлик мезонлари	43
Ulug'bekova G.J., Adhamov Sh.A. 7-12 yoshdagı bolalarda yuzning fizionomik balandligi o'sish dinamikasi	44
Uraimov S.R. 1-2-sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini "salomatlik" testlari yordamida baholash	46
Utepbergenov A.Q., Turganbaev M.A. Fizikalıq tayarlıq procesinde akmeologiyalıq qatnas jasawdıń didaktikalıq tiykarları	48
Закирова М.Р. Использование облачных технологий в управлении средней общеобразовательной школы	50
Tálim - tárbiya teoriyası hám metodikası	
Алламбергенова М.Х. Электрон таълим ресурслари воситасида ахборот технологияларини касбий фаолиятга йўналтириб ўқитиш	53
Авезбаев А.Х. Средства и методы общей и специальной физической подготовки в баскетболе ...	54
Annayeva M.R. Integrativlik tiykarında oqiwshılardıń oqip-biliw belseñiligin asırıwdıń didaktikalıq sisteması	56
Baymetov B.B. Bo'lajak pedagoglarni kasbiy shakllantirishda tasviriy san'atning nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi	58
Bekimbetova G.R. Tálim basqa tillerde alip barilatuǵın mekteplerde qaraqalpaq tilin oqitiw máseleleri	60
Бердиева З.И. 10-синф ўкувчиларининг хаётда ўз ўрнини топишида лойихалаштириш методининг ўрни	62
Davletov B.A. Sıdıq shayır dóretiwshiligin oqıtıw usılları	64